



THE IMPACT OF PRACTICAL APPROACHES IN PAINTING CLASSES ON STUDENTS' ARTISTIC POTENTIAL

Xatamjonov Islombek Xusniddin ogl

Student, Gulistan State Pedagogical Institute

email: islombokxatamjonov@gmail.com

Annotation: This article explores the role of painting methodology in the artistic activities of children at the preschool and primary education stages. Through the use of color, children develop aesthetic taste, express emotional states, and enhance their creative thinking. The article analyzes age-appropriate methodological approaches, practical lesson formats, and the role of modern technologies in the educational process.

Keywords: painting, visual arts, aesthetic education, methodology, age characteristics, color psychology, pedagogical approach, interactive technologies, creative thinking .

RANGTASVIR MASHG‘ULOTLARIDA AMALIY YONDASHUVNING O‘QUVCHILARNING BADIY SALOHIYATIGA TA’SIRI

Xatamjonov Islombek Xusnidin o‘g‘li

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

email: islombokxatamjonov@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi bolalar tasviriy faoliyatida rangtasvir metodikasining o‘rni yoritiladi. Ranglar orqali bola estetik didini shakllantiradi, emotsiyol holatini ifodalaydi hamda ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Maqolada yosh xususiyatlariga mos metodik yonda shuvlar, amaliy mashg‘ulot shakllari va zamonaviy texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: rangtasvir, tasviriy san’at, estetik tarbiya, metodika, yosh xususiyatlari, ranglar psixologiyasi, pedagogik yondashuv, interaktiv texnologiyalar, ijodiy tafakkur.

Inson tafakkurining shakllanishida tasviriy faoliyat, ayniqsa bolalik davrida, muhim o‘rin egallaydi. Bola atrof-muhitni ko‘z bilan kuzatadi, yurak bilan his etadi va tasavvur orqali olgan taassurotlarini ifoda etishga intiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, rangtasvir ranglar vositasida rasm chizish va bo‘yash, bolaning o‘zini ifoda etishdagi eng tabiiy, ta’sirchan va emotsiyonal vositadir. Maktabgacha ta’lim muassassalari hamda boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘tkaziladigan tasviriy san’at mashg‘ulotlari, ayniqsa rangtasvir darslari, bolalarning estetik didini shakllantirishda, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda va hissiy olamini boyitishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bola tasviriy faoliyatida rangtasvir metodikasining o‘rni, uning estetik, pedagogik va psixologik funksiyalari tahlil



qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim sharoitida rangtasvirni samarali tashkil etish hamda uni yanada rivojlantirish yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

Rangtasvir faoliyati bolada, eng avvalo, atrof-muhitni kuzatish, uni o‘ziga xos tarzda talqin qilish, shakl va rang uyg‘unligini anglash hamda ijodiy izlanishga bo‘lgan qiziqishni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar esa ta’limning asosiy maqsadlari – fikrlash, ifodalash va tushunishga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, rangtasvir mashg‘ulotlari bolaning kuzatuvchanlik qobiliyatini, tafsilotlarga e’tiborini, mantiqiy fikrlash salohiyatini va fazoviy tasavvurini rivojlantiradi. Bola har bir chiziq, shakl yoki rang orqali ichki kechinmalarini va his-tuyg‘ularini ifoda etishga harakat qiladi. Bu esa uning o‘zini anglashiga, atrofdagilar bilan munosabat o‘rnatishiga va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishiga zamin yaratadi.

Estetik nuqtayi nazardan esa rangtasvir bolalarning go‘zallikni anglash, uni qadrlash va yaratishga intilish hissini rivojlantiradi. Ranglarning uyg‘unligi, kontrasti va yorqinligi orqali bolaning ichki dunyosi boyiydi, didi shakllanadi hamda san’atga nisbatan hurmat va qiziqish uyg‘onadi.

Bolaning tasviriy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi, avvalo, uning yoshiga mos ravishda tanlangan, psixologik va fiziologik rivojlanish darajasini inobatga olgan metodik yondashuvga bog‘liq. Shu sababli rangtasvir mashg‘ulotlarini tashkil etishda differensial – ya’ni individual xususiyatlarni hisobga olgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar (3-6 yosh): Ushbu yosh bosqichidagi bolalar ko‘proq emotsiyal va hissiy tasavvur asosida rasm chizadilar. Ular uchun realizm muhim emas, balki ichki kechinmalarini ranglar orqali ifodalash ustuvor hisoblanadi. Masalan, bola quyoshni moviy rangda, o‘tloqni esa qizil rangda tasvirlashi mumkin – bu bolaning real voqelikni his qilish emas, balki his qilish asosidagi idroki bilan bog‘liqdir. Shu sababli bu yoshda ranglar bilan tajriba o‘tkazishga, bo‘yoqlarni aralashtirib yangi ranglar hosil qilishga, tanlovda erkinlik berishga asoslangan metodik yondashuvlar eng samarali hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (7-10 yosh): Bu bosqichda bolalarning tasviriy tafakkuri shakllana boshlaydi. Ular real hayotdagi tasvirlarni anglash va ifodalashga intiladilar. Ranglar orasidagi farqlarni tushunish, yorug‘lik manbai va soyalar o‘rtasidagi munosabat, obyekt va fon o‘rtasidagi nisbatni idrok etish – bularning barchasi bosqichma-bosqich bolaga o‘rgatiladi. Shu bois, bu davrda mavzuli kompozitsion mashg‘ulotlar, ko‘rgazmali vositalar, bosqichli ko‘rsatmalar asosida tashkil etilgan darslar yuqori samara beradi.

Rangtasvirni o‘rgatish jarayonida bir nechta metodik yondashuvlardan foydalilanadi. Ular bolaning tasviriy ko‘nikmalarini, ijodiy fikrini va estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi. Bular:

1. Ko‘rgazmali ta’lim usuli: o‘qituvchi tayyor namunalar asosida rang tanlash, ranglar uyg‘unligini yaratish, yorug‘lik va soya tushirish kabi tasviriy malakalarni ko‘rsatib beradi. Ushbu usul bolada kuzatuvchanlikni, tafsilotlarga e’tibor berish ko‘nikmasini shakllantiradi.



2. Erkin ijodga asoslangan mashg'ulotlar: bola belgilangan mavzu doirasida o'z kayfiyati, tasavvuri va his-tuyg'ulariga mos ranglarni tanlaydi. Bu yondashuv bolaning mustaqil fikrlashi, estetik qarashlarini rivojlantirishda muhim rol o'yndaydi.

3. Tematik kompozitsiyalar: muayyan mavzuga asoslangan syujetli rasm chizish orqali bola asosiy va ikkilamchi obyektlarni ajrata olish, kompozitsiyani to'g'ri qurish, fon bilan asosiy obrazni uyg'unlashtirish ko'nikmalarini hosil qiladi. Bu usul tafakkurni rivojlantirishda juda samarali.

4. Ranglar bilan tajriba metodlari: ranglarni aralashtirish, kontrastlar bilan ishslash, yangi tonlar yaratish jarayoni bolaning eksperimentga asoslangan fikrlashini, sabab-natija bog'liqligini anglash qobiliyatini oshiradi. Ayniqsa, guash va akvarel bo'yoqlari yordamida o'tkaziladigan bunday mashg'ulotlar didni tarbiyalashda foydalidir.

Ranglar bolaning ongida nafaqat estetik obrazlar, balki chuqur emotsiyonal va psixologik kechinmalarni uyg'otadi. Ranglar bolaning kayfiyati, hissiy holati, hatto ichki dunyosining bevosita aksidir. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, bolalar odatda iliq va yorqin ranglarni afzal ko'radilar, bu esa ularning faol, ijobiy energiyaga boy psixologik holatini ifodalaydi.

Turli ranglarning psixologik ta'siri quyidagicha izohlanadi:

- Qizil – harakat, energiya, ishtiyoq;
- Ko'k – osoyishtalik, sokinlik, xotirjamlik;
- Sariq – quvonch, iliqlik, ijobiylik;
- Yashil – tabiat, barqarorlik, uyg'unlik;
- Qora yoki kulrang – xavotir, ichki siqilish, bezovtalik belgisi sifatida talqin etiladi.

Shu sababli, bola tomonidan chizilgan rasmda ishlatilgan ranglar uning ichki hissiyotlari haqida muayyan tasavvur hosil qilishga yordam beradi. O'qituvchi yoki pedagog bu rang tanloviga e'tibor qaratishi, zarurat tug'ilganda bolaning psixologik holatiga doir pedagogik kuzatuvarlar asosida mulohazalar yuritishi mumkin.

Zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish. Bugungi raqamli davrda rangtasvir metodikasini axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, uni yangi bosqichga olib chiqishning dolzarb ekani shubhasizdir. Raqamli grafik muharrirlar, interaktiv vositalar va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar bolalar uchun tasviriy faoliyatni yanada qiziqarli, qulay va samarali qiladi. Zamonaviy vositalarning ayrimlari:

- Tux Paint, Procreate, Sketchbook, ArtSet – bolalar uchun moslashtirilgan grafik dasturlar bo'lib, ularda oddiy va xavfsiz interfeys orqali tasviriy faoliyat olib borish mumkin.
- Interaktiv doskalar – real vaqt rejimida ranglarni aralashtirish, chiziq va shakllarni chizish imkonini beradi.
- Virtual ko'rgazmalar – bolalarning ishlarini onlayn namoyish qilish orqali ularning motivatsiyasini oshiradi, ijodiy tanqidiy fikrlarni rivojlantiradi.
- 3D rangtasvir va animatsiyalashgan kollajlar – zamonaviy ijodiy tafakkurni, vizual idrokni rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi.





Ushbu texnologik imkoniyatlar orqali tasviriy san'at mashg'ulotlari nafaqat bolalar uchun yanada qiziqarli tus oladi, balki ularning texnologik savodxonligi ham shakllanadi.

Rangtasvir metodikasi bola tasviriy faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning estetik dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri va ruhiy holatini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Ranglar yordamida bola o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va tasavvurlarini tashqi ifodaga chiqaradi. Shu sababli, rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etishda yosh xususiyatlariga mos, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan, interfaol va estetik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Bunday metodik yondashuv nafaqat bolaning tasviriy ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki uni mustaqil, ijodiy va hayotga ijobiy ruhda qarashga yo'naltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'.Abdurahmonov. Kompozitsiya (o'quv qo'llanma). T.: 2009.
2. U.Nurtoev. "Rangshunoslik asoslari", T.: O'qituvchi, 2020.
3. Pardaboyevich, Jumaboyev Nabi. "O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARING O'RNI." WORLD OF SCIENCE 6.11 (2023): 87-90.
4. Pardaboevich, Jumaboev N., et al. "The Main Tasks of Fine ARTS in the Educational Process." International Journal on Orange Technologies, vol. 3, no. 5, 2021, pp. 64-67.
5. Pardaboevich J. N. THE APPLICATION OF EASTERN PHILOSOPHICAL AESTHETIC CONCEPTS IN ARTISTIC EDUCATION AND THEIR INTERPRETATION IN PEDAGOGICAL RESEARCH //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2025. – T. 14. – №. 01. – С. 218-222.
6. Юсупова Ш. А., Жумабоеv Н. П. ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 460-464.
7. Baxtiyarova , F. (2023). MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS. *Ilm-Fan Va ta'lim*, 1(1). извлечено от <https://ilmfanatalim.uz/index.php/ift/article/view/120>.
8. Ibadullaeva , Z. ., & Jumaboev , N. . (2025). UZBEK NATIONAL ART AND ITS SCHOOLS. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 2(2), 127–130. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/yoitj/article/view/68532>.
9. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – Т. 5. – №. 02. – С. 48-58.
10. R.Z. Xayrov RANGTASVIR DARSLARIDA "MUVAFFAQIYAT QOZONISH" MUHITINI YARATISH VA "RASSOM HUSNIXATI" USULLARI INTEGRATSIYASI // Inter education & global study. 2025. №3. URL:



[https://cyberleninka.ru/article/n/rangtasvir-darslarida-muvaffaqiyat-qozonish-muhitini-yaratish-va-rassom-husnixati-usullari-integratsiyasi.](https://cyberleninka.ru/article/n/rangtasvir-darslarida-muvaffaqiyat-qozonish-muhitini-yaratish-va-rassom-husnixati-usullari-integratsiyasi)

11. Inoyatov O.S. Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish masalalarini ifodalashga metodik yondashuv// Inter education & global study. 2025. №6. B.256-269.

12. Shakarbek o‘g‘li, Imomov Fozil. "CHIZMACHILIK DARSLARIDA KICHIK GURUHLAR BILAN ISHLASHDA INDIVIDUAL YONDASHUV. PEDAGOGS, 73 (1), 262-265." 2025.

